

ISAJON SULTONNING “ALISHER NAVOIY” ROMANIDA RUHYAT TALQINI VA IJODKOR USLUBI

Sarmonov Odilboy Muxammadiyevich

Guliston davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annatsiya: iste'dodli adib Isajon Sultonning “Alisher Navoiy” romanida shaxs ruhiyatining badiiy talqinlari tahlil qilingan. Badiiy xronotopning turli vositalari asosida inson kechinmalarining badiiy ifodasi haqida soʻz yuritilgan. Romanning asosiy qahramoni hisoblangan Alisher Navoiyning qalb kechinmalari, quvonchu isriroblari tarixiy muhit fonida talqin etilganligiga tahliliy yondoshilgan.

Kalit soʻzlar: psixologizm, talqin, badiiylik, ijodkorlik, yondoshuv, voqelik, ifodalash, ijodkorlik, konsepsiya.

Adabiyotshunosligida nasriy asarlar poetikasi tarkibining bir qismi xarakterlarni yuzaga chiqaruvchi tarixiy haqiqat va badiiylik tamoyillari bilan bogʻliq keng miqyosda ilmiy tadqiqotlar olib borilgan va borilmoqda. Tarixiy haqiqatning badiiy talqini zamiridagi ijodkor pozitsiyasi, ideyasi, uning mahorati asosida hayot haqiqatining talqinlariga tahliliy yondoshuvlar yuzasidan qator mulohazalar yuritilgan. Romaniy tafakkur asar qurilishida muhimlik kasb etishi, uning gʻoyaviy-badiiy xususiyatlariga taʼsir koʻrsatishi, yozuvchi konsepsiyasining umuminsoniy tamoyillar bilan boyishi, romanlaridagi hayotiy va badiiy haqiqatning mahorat bilan ishlanishida yaqqol namoyon boʻlmoqda.

Uzoq yillar davomida shakllanib kelgan milliy qadriyatlarning badiiy ifodasi, turli davr xususiyatlarini oʻzida mujassamlashtirib keldi. Jamiyat tamaddunidagi rivojlanishlar insoniyatni, uning tarixini anglash imkonini beradi. Shunday bahramandlik biz uchun istiqloq quyoshi porlagan davrga yetib keldi. Bu davrda romanchilik ham yangi ohanglar bilan boyib bormoqdaki, bu esa adabiy talqinlarning yangilanishiga keng imkon berdi. Jahon adabiyotining ilgʻor tendensiyalaridan foydalangan holda milliy adabiyotda romanchilik taraqqiyotini,

uning o'ziga xos talqin usullaridagi o'zgarishlarni, poetik yangilanishlarni yuzaga chiqish imkonini kengaytirdi.

Istiqlol yillariga kilib, o'zbek adabiyotining turli janrlarida ijod qilib kelayotgan iste'dod sohiblaridan biri Isajon Sultondir. Uning qalamiga mansub hikoya, qissa va romanlarida o'ziga xos talqinlar ijodkorning etuk mahoratidan dalolat beradi. O'tga yuz ichida insoniyat ikkita ulkan urushni boshdan kechirdi, - deb yozadi, adabiyotshunos olim A.Rasulov. Global ijtimoiy katalizimlar ro'y berdi, aql bovar qilmas kashfiyotlar yuzaga chiqdi. Mazkur pallada turli mavzularda juda ko'plab asarlar yaratilgan bo'lsa-da, ulardan insoniyat tafakkur tarixiga yombi bo'lib kira oladiganlari barmoq bilan sanarli... Shakllar qiyofalar, g'oyalar va obrazlar yaratilar ekan, tobora shiddatli tus olib borayotgan zamonaviy dunyo yana yangi ruhiy tayanchga ehtiyoj tuya boshlagan edi. Badiiy asar xayol mahsuli, xayol esa kelajakda ro'y berishi mumkin bo'lgan voqea va hodisalarni oldindan jonlantirib ko'rish deganidir" [1, 407-bet].

Darhaqiqat, adabiyotshunos olim A.Rasulov qayd qilganidek, adabiyotning zamiridagi talqinlarning yangilanishida ijodkorning badiiy mahorati etakchi rol o'ynadi. Shuning uchun ham Isajon Sulton ijodining o'rni o'zbek adabiyotida o'ziga xos o'ringa eka ekanligi bilan alohida ajralib turadi. Isajon Sultonning turli janrdagi asarlari, keyingi yillar o'zbek adabiyotining yangilanish jarayoning ham yuzaga chiqishiga imkon berdi. Bu fikrlarni adibning "Boqiy darbadar" asari o'zbek romanchiligiga yangicha ruh, ohang olib kirganligi bilan izohlash mumkin. Adabiyot ixlosmandlari, kitobxonlar, eng asosiysi keng afkor omma asarni juda iliq kutib olishi bilan birgalikda, asosli tushunchalar ham qayd etidiki, buning zamirida, ijodkorning poetik mahorati yuksak baholanish bilan qayd etildi va e'tirof etilishining o'ziyoq bejiz emasligidan dalolat beradi.

Noan'anaviy talqin yo'nalishini tanlagan yozuvchi kichik hajmli asarga, keng qamrovli mavzuni sigdira olgani, unig talqinlarida insonning o'zligini anglashga bo'lgan ehtiyojning badiiy ifodalari, kitobxon qalbini dahshatga soladi. "Boqiy darbadar" – deb yozadi adabiyotshunos Dilmurod Qur'onov: "Asarda ananaviy eposga xos voqeband syujet o'rnida sirtidan bir-biriga bog'lanmay turli

makon va zamonda, goh reallik, gohi hayolotda kechuvchi voqealar tasvirlangan, markazida risoladagidek qahramon turmagan bo'lsa-da, ularni bir narsa – hayotning ma'nosiyu bashariyat taqdiri haqida o'yga tolgan muallif shaxsi birlashtiradi, yaxlit butunlikka – romanga aylantiradi” [2, 15-bet].

Iste'dodli adabiyotshunos olim Qozoqboy Yo'ldoshevning ta'kidlashicha: “Nazarimizda, asarda professor Ziyoning o'g'li obrazi tabiati bir qadar kengroq tasvirlanishi, asoslanilishi va takomilga yetkazilishi lozim edi. Har bitta odamning mavjudligi uning makoni, millati va imonidan tashqarida bo'lmasligini anglagan, ana shu qadriyatlarga mehr qo'yilgandagina global falokatlardan emin bolinishini tushungan, tabiiy kataklizmlar insonning ma'naviy aynishlari natijasi ekanini kora olgan yigitning bu haqiqatlarni his etishi yoki uning shu fikrga kelishiga turtki bolgan sabab aks ettirilganda, roman saviyasi yuksalgan bo'lardi” [3, 6-bet].

Ta'kidlanganidek, inson qismatini, uning ruhiy kechinmalarini badiiy talqin etish, uning tuyg'ularini, qalb istioroblarini, quvonchu shodliklarini badiiy talqin etish ijodkordan katta mahorat talab etishishi ham, bejiz emas. Shaxs xususiyatlarining badiiy ifodasina inson tafakkuridagi evrilishlarning badiiy ifodasi ham juda mahorat bilan talqin etilgan. Talqinlar zamiridagi murakkab psixologik ifodalar, inson ruhiyatini yoritilishiga asos bo'lgan.

Qayd qilingan tushunchalar, iste'dodli adib Isajon Sultonning nafaqat zamonaviy romanlariga xos bo'lgan xususiyatlar, balki shu bilan uzviy birlikda tarixiy romanlariga xos bo'lgan badiiy talqin xususiyalardir. Adabiyotshunos G'. Murodov qayd qilganidek: “Oybek romanidagi badiiy xronotop ma'lum darajada chegaralangan, unda Xuroson, asosan, Hirotda o'ttiz yil davomida kechgan ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-madaniy hayot lavhalari aks etgan. Asarda asosiy qahramon – Alisher Navoiyning butun hayoti, tarjimai holi berilmagan. Muallif o'z oldiga qo'ygan badiiy-poetik, falsafiy-g'oyaviy konsepsiyaga ko'ra ulkan shaxs hayotining ayrim bir bo'lagini ajratib olgan va bu hayotni mamlakat, davlat tarixiga muvofiq holda tasvirlagan” [4, 89-bet].

Darhaqiqat, adabiyotshunos qayd etganidek, iste'dodli adib Musa Toshmuhammad o'g'li Oybek “Navoiy” romanida o'z davrining buyuk shaxsi

obrazini, quvonchu istiroblarini juda go'zal tarzda, epik planda talqin etgan bo'lsa, oradan chorak asr kam vaqt o'tgandan so'ng uning epik plandagi badiiy obrazini Isajan Sulton yaratdi. Yozuvchining "Alisher Navoiy" romanida tarixiy voqelik bilan bir qatorda tarixiy shaxsning haqqoniy siymosi ochib berilganligini alohida qayd etish lozim.

"Alisher Navoiy" tarixiy romanida esa, hayot voqeligini asosli tarzda badiiy ifodalaganligini kuzatamiz. Muallif tarixiy romanni yaratar ekan, "Xazoyin ul maoniy" asariga mengzab, to'rt qismga bo'ladi. Har bir qismni, qayd qilgan asarimizga asoslangan holda nomlaydi, shu yo'sinda voqealarni rivojlantirib boradi.

Bu tarixiy romanda Mir Alisher Navoiyning bolaligi o'tgan maskanlar, shu vaqtda o'tkaziladigan bayramlar, o'sha davr odamlari tuzumni nechog'lik adolatsizligi, tabiat tasviri, bozorlar, rastalar xalq sayllari, ilmu toliblar hayoti, shoir-u fozillar, saroy muhiti kabi jabhalarning turli xususiyatlarini so'z vositasida talqin etadiki, bu esa davr muhitini ijodkor asosli o'rganganligidan dalolat beradi. Asarda Xuroson poytaxti Hirot shahri Hiri deb ulug'lanadi. Hiri Hirotning o'ziga xos jozibali nomlanishi ham asarning badiiyligini oshishiga xizmat qilgan. Shu birgina so'z bilan Vatanga muhabbat ruhi xalqda nechog'lik yuksak ekanligini ifodalaydi.

Isajon Sulton bu tarixiy romanida Alisher Navoiy obrazidagi odamiylik, do'stga sadoqat, va'daga vafo, ezgulik, yaxshilik kabi qator go'zal fazilatlarni mujassamlashtiradi. Tabiiyki, bu xususiyatlarning barchasi Mir Alisher Navoiyga xos fazilatlar ekanligini ham ta'kidlash joizdir. Asarda barcha obrazlar Alisher Navoiy timsolini teyranroq ochib berishga xizmat qiladi. Asrni yuqorida aytib o'tganimizdek Navoiyning "Xazoyin ul maoniy" asaridagidek nomlar bilan nomlashini o'ziyoq, moziy bilan hozirgi kunni birlashtiruvchi badiiy vosita sifatida e'tirof etish mumkin. Asar "G'aroyib us-sig'ar", "Navodir ush-shabob", "Badoe ul-vasat", "Favoid ul-kibar" deb atalghan to'rt qismdan tashkil topgan.

Yozuvchi Mir Alisher navoiy obrazini tasvirlar ekan har yerda xalqning o'ziga xos fazilatlarini ulug'lashga qaratilgan tasvirlarning etakchilik qilishini

kuzatamiz. Davr kishilarining turfa xil fazilatlari bilan birgalikda, xalqning orzularini, tinchlik-farovonligini, xalq dardi bilan yashashini, adolat bilan yurt boshqarishga shohlarni undashi, sulh bilan nizolarni bartaraf etishi, toju taxt uchun bo'ladigan nizolarni oldini olish kabi yaxshiliklari haqida so'z yuritadi. Asar syujetini yoritishda bir qancha to'qima obrazlar yaratadiki, ularni tasvirlashda so'z imkonidan unumli foydalandai. Ammo tarixiy shaxslar obrazini yaratishda esa, adib tarix haqiqatiga sodiq qolishga intiladi va badiiy obrazlar olamini kashf etadi.

Asardagi voqealar rivojida ramziy ma'no tashuvchi samoviy dumli yulduz tafsili, uning hazrat hayotida bir necha ko'rinishini ham hikmatga yuyadi va buning sirli tamonlarini o'quvchi hukmiga qoldiradi. Yozuvchining har ikki romanida o'zbek adabiyotining taraqqiyotiga ulkan hissa bo'lib qo'shildiki, bu ham ijodkorning poetik mahoratidan dalolat beradi. "Boqiy darbadar" va "Ozod" romanlarining tasvir usuli, undagi falsafiylik, ramz va majoz orqali insonni kashf etishga intilishi, bularning barchachasi, insonni anglash, uning tug'u va kechinmalarini etarli darajada his etish, natijasining mahsuli sifatida maydonga kelganligi tabiiydir. Adib izlanishlarida hayot voqeligiga falsafiy yondoshish an'anasining etakchilik qilishi ham bejiz emas. Chunki muallif Sharq va G'arb ijodiy an'alarini mukammal o'rgangan, uning turfa xil xususiyatlarini yuzaga chiqarishga tinimsiz intilgan ijodkorlardan biridir.

Iste'dodli adib Isajon Sultonning romanlaridagi obrazlar tarixiy yoki badiiy to'qima bo'lsin, undagi bosh qahramonni yanada ko'proq ochishga, davrning keskin voqealari asosida yoritishga intilganligini ham qayd etish lozim. Tarixiy roman yozish uchun ijodkor o'sha davrni, uning muhitini, qahramonlar olamini teran anglash zarur bo'ladi.

Yozuvchi tarix tamoillariga jiddiy e'tibor qaratishi, o'zining olam va odam haqidagi qarashlarini voqelikka tayangan holda ifodalashi, badiiy g'oya talabi bilan tarixiy roman syujetiga to'qima obrazlar, to'qima voqelik ham sayqallanib kiritilishi kerakligini juda yaxshi anglaydi. Isajon Sulton romanlarida tarixiy obrazlarning turli xarakter xususiyatlarini ochishda, badiiy to'qima obrazlardan ham unumli foydalanadiki, bu esa ijtimoiy muhitning o'ziga xosliklarini yoritish

uchun ham asos bo'lganligini kuzatish mumkin.

Romanda Mir Alisher Navoiyning ilk ijodi, uning adabiyotga kirib kelish jarayonlarini juda go'zal talqin etadiki, bu esa kitobxonni davr adabiy muhiti bilan bir qatorda yosh ijodkorning badiiy mahoratidan dalolat beruvchi xususiyatlarni teranroq anglash imkonini beradi: "Dunyoga kelganiga endigina bir muchal to'layotgan o'g'lon shu tariqa, yana bir ulug' zotning duosiga musharraf bo'ldi. Duo mustajobi kulliy, ya'ni umumiy bo'lur. Buning misoli bahorga o'xshaydi. Qish qattiq kelganida bahorni barcha orziqib kutadi. Bahor esa borliqqa haroratu orom baxsh etishidan tashqari, tevarakni yangilab yuboradi, u tufayli butun tiriklikka rizqu ro'z etiladi. Alisherning yaqinlari, jigarlari, ustozlari va ulug' yoshli kishilar turkiy til saltanatida o'xshashi yo'q bir iste'dod bino bo'lajagni orzulashsa-da, ma'ni dur gavharlari xazinasini yaratadigan, Xuroson shon-sharafini ko'klarga ko'taradigan shoir sgu bo'lib chiqishidan bexabar edilar" [5, 71-bet].

Ijodkor bu talqinlarni pesaj ifodasiga bog'liq holda beradiki, kitobxon bahorning go'zal, oniy yangilanishlari bilan uzviylikda, turkiy adabiyotning yangilanish jarayonidan xabardor bo'ladi. Chunki ijodkor konsepsiyasidan o'rin talqinlarda bahorning go'zalligi, yangilanish jarayoniga metaforik ifodani singdirib yuborganligini ham alohida qayd etish kerak.

Adabiyotshunos Suvon Meli ta'kidlaganidek: "Badiiy adabiyot atalmish ijtimoiy hodisa ko'plab matnlardan tashkil topadi. Muayyan til qoidalariga binoan ma'no talabi bilan tartibga tushadigan gaplar majmuyi muayyan adabiy janrga talluqli asarlarni vujudga keltiradi. Ularning barchasi matnlardan iborat" [6, 276-bet]. Roman matnidan o'rin olgan talqinlarning har biri o'ziga xos vazifalarni, barish bilan birgalikda, badiiy funksiyani bajaradi.

Isajon Sultonning bu tarixiy romanida turfa xil vositalar asosida shaxs ruhiyati, uning kechinmalarini asosli ochib bergan: "Ko'hak tepaligiga etishganida samodagi yulduzlar qo'l cho'zsa etar darajada yaqinlashib qolganday tuyuldi. Ha, bahor ko'p narsani o'zgartirgan, smo pastlaganday, yulduzlar yaqinlashib, ajib kelajakni va'da qilganday jimirlashardi. Alisher to'xtab, uzoq muddat ko'kka

termilib qoldi. Samarqand ahli bu yulduzlarni o'zicha nomlagan, anavi Ettiog'ayni, bunisi katta va Kichik Cho'mich... Samon yo'li esa kumush changiday yoyilib ketgan edi" [5, 139-bet].

Talqinlarga nazar tashlar ekanmiz, inson qalbidagi kechinmalar, tuyg'ular, yuqorida qayd etilganidek, pezaj asosida yuzaga chiqqan. Uning zamirida buyuk iste'dod sohibining yaxshilikka, adalotga, tinchlikka undovchi qarashlari mujassamlashgan.

Adabiyotshunos A.Nasirov qayd qilganidek: "Romanda tarixiy sharoitning real tasviri asosiy o'rinlardan birini egallab, asar badiiyatini belgilovchi mezonlardan biri sifatida namoyon bo'ladi" [7, 21-bet]. Roman qahramonlari tarixiy shaxslar bo'lib, kitobxonga ular bilan yuzma-yuz kelish imkonini beradi, bu hayajonni tuyish nechog'lik yoqimlilikini his ettiradi. Asar qahramoni Hazrat Alisher Navoiy bo'lib uning boshqa qahramonlar bilan bo'ladigan ijobiy munosabati asar syujetining rivojida asosiy o'rin tutadi. Alisher Navoiy o'z davrining muhim timsoliga aylangan shoir, mutafakkir va fozil shaxs ekanligini, bu qarashlar romandagi talqinlarda o'z zuhirini topganligidan dalolat beradi.

Asar syujeti asosida "Dumli yulduz siri" bobi ham ahamiyatlidir. "Oo ajab!- deb xitob qildi Mirsaid Kobuliy Dumli Yulduzning ko'rinmog'i kishi o'g'liga saodat yo falokat olib kelishi kishining burji, burjlarning falak toqidagi vaziyati va yulduz dumining qay tarzda ekanligiga qarabn bashorat qilinishidan xabardor edi. Iroq ahli yulduz dumi tepaga yoxud pastga qaraganiga, qalin yupqaligiga fol ochishardi.- qarang yuksalgandan yuksalmoqda. Barcha yulduzlarni quyida qoldirib uchmoqda" [5, 18-bet].

Bu voqea ham Alisherning kelajakda buyuk inson bo'lib, yetishishiga bir ishora. Shunda bola Alisher "Uning boshqa yulduzlarga qaraganda o'zga vazifasi bo'lsa kerak deyishi, romanda timsol va ramzlar alohida ahamiyatga ega. Ularning har biri o'zgacha ma'noga ega. Dumli yulduz voqeasiga kelsak u Azlisherning hayotida qayt-qayta ko'rinadi, u bilan yuzlashadfi. Faqat holat o'zga- o'zgacha bo'ladi.Xalq orasidagi Dumli yulduz ko'rgan odam baxtli, saodatli, o'zgalardan farqli bo'ladi, degan naql butun asar davomida Alisher Navoiy hayoti bilan birga

yuradi.

Adibning romanlarida ijodkor badiiy moharatining o'ziga xosligini namoyon etuvchi turli ifoda shakllarining yuzaga chiqishi, adibning uzoq yillik samarali izlanishlarining mahsuli sifatida baholanishi minkin. Chunki milliy adabiyotga xos ifodaning shakllanishi, mumtoz an'analarni mukammal o'zlashtirganidan, jahon adabiyotining etkchi tamoyillarini ham asosli tarzda romanlar sujetiga singdirilganligida ko'rish mumkin.

Isajon Sulton ijodidan o'rin olgan romanlarning barchasida, ijodkorning poetik mahorati bilan bilan uzviy birlikda, individual uslubi ham namoyon bo'lib turadi. Bularning barchasining asosida ijodkorning mashaqqatli mehnati va ijodiy jarayonni teran his etishi bilan uzviylikda anglash mumkin. Uning asarlarida shaxs qisami, uning fojialari, romandagi voqealar silsilasida teranlashib boradi.

Ijodkor olamni bilish yo'lida o'z badiiy talqinida tarixiy shaxs individual ruhiyatini sentez qiladi uning taqdir yo'lini, murakkabliklariga bir nazar soladi. Shu tarixiy shaxsni obekt qilib oladi, u orqali zamon va makonni o'rganadi. Natijada ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy, falsafiy qarashlarini birinchi o'ringa chiqaradi va o'rganadi. Shuni aytib o'tish joizki tarixiy asarni baholashda o'tmishni qay darajada jonli tasvirlanishi emas, balki mavjud tarixiy shaxsning badiiy estetik tafakkuri voqealar markazida o'zining badiiy ifodasini topgan.

Muallif romanda asosan bosh qahramon timsolida tarixiy shaxs konsepsiyasini ilgari suradi. Ya'ni ijodkor olamni, odamni bilish yo'lida o'z badiiy talqinidagi tarixiy shaxs ruhiyatini taftish qiladi, uning murakkab taqdiriga nazar soladi. Shu tufayli zamon va makonni anglab yetadi, barcha yo'sinda o'z qarashlarini ifoda etadi. Badiiy matn tarkibidagi talqinlar inson ruhiyatini, uning o'ziga xos jihatlarini asosli talqini uchun zamin bo'lgan.

Xullas, Isajon Sultonning badiiy mahorati asarning boshdan oyoq to'lasincha ufurib turibdi. Yillar va yo'llar ta'rifi deysizmi, insonlaru joy nomlari deysizmi, yulduzlar-u burjlar deysizmi, tabiat quchog'iyu tog'lar deysizmi barchasida badiylik ufurib turibdi. Xronotopning bunday elementlari, inson psixologiyasini, uning ruhiyatini talqini uchun asos bo'lgan.

Tarxiy roman konsepsiyasiga asoslangan holda, tarix haqiqatlarini juda go'zal talqin etadi. Buning zahirida ijodkor o'sha davr muhitini tarixiy manbalar asosida juda yaxshi o'rganganligidan dalolat beradi. Shuning uchun ham, Alisher Navoiyning turli asarlariga murojaat etadiki, bu asosida tarixiy davr voqeligini badiiylashtirish imkoniyatidan unumli foydalanganligini kuzatdik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Rasulov A. Asrlar falsafasi. Ma'lumot uchun qarang: Isajon Sulti. Ozod. Roman. So'ng so'z. 407-bet.
- 2.Quronov D. O'ylashga undovchi asar // Sharq yulduzi. 2010. 6-son.
- 3.Q.Yo'ldoshev. Tuyg'ularning rangin jilosi / O'zbekiston adabiyoti va san'ati, 2004.
- 4.Муродов Ғ. Тарихий роман: генезиси, кейинги тараққиёти. — Тошкент, Фан, 2005. — 172 бет.
- 5.Исажон Султон. Алишер Навоий. Роман. — Тошкент, Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи, 2022. — 476 бет.
- 6.Сувон Мели. Ишқ зоҳири изҳори. Тадқиқот ва адабий-публицистик мақолалар. — Тошкент, “Адабиёт” нашриёти, 2025. — 408 бет.
- 7.Nasirov A. badiiylik va hayot haqiqati. Turkiya, Istanbul, Kesit, 2019. — 140 bet.